

QALANDAROV

Qobil Suyarovich

Alfraganus University Tibbiyot fakulteti

farmatsiya yo'nalishi talabasi

ORCID:0007-6965-5135,

Qobilqalandarov1@gmail.com

SA'DULLAYEVA

Saida Jasurbek qizi

Toshkent shahri, Alfraganus University

MOMORDIKA O'SIMLIGINI DORIVOR XUSUSIYATI XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqolada momordika o'simligini dorivor xususiyatlari haqida umumiy ma'lumotlari keltirilgan.

THE MEDICINAL PROPERTIES OF THE MOMORDICA PLANT ARE IMPORTANT IN FOLK MEDICINE

Abstract: The article provides general information about the medicinal properties of the motherwort plant.

ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА РАСТЕНИЯ МОМОРДИКА ЗНАЧЕНИЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ

Резюме: В статье приведены общие сведения о лечебных свойствах растения Момордика.

Kirish

Momordikaning vatani Hindiston va Xitoy hisoblanadi. Hozirgi kunda manzarali va shifobaxsh o'simlik sifatida Janubiy Osiyoning barcha mamlakatlarida yetishtirilmoqda. Bu o'simlik o'zining dorivorlik xususiyatlari, antiqa nomlari va ajoyib tashqi ko'rinishi bilan insonlarni o'ziga jalb qiladi.

Momordika ildizlarida revmatizmni davolashda ishlatiladigan moddalar – triterpen saponinlari mavjud. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mevada mavjud bo'lgan aralashmalarining ayrim turlari antiviral va

antibakterial faollik tufayli gepatit va OI-Vni davolashda ishlatilishi mumkin.

Momordika o'zining dorivorlik xususiyatlari va ko'plab kasalliklarga tabiiy davo hisoblangani bois butun dunyo tabobatida va zamonaviy tibbiyotda alohida o'rin ega. Shifobaxsh momordikani O'zbekistonda yetishtirish va foydalanishni yo'lga qo'yish orqali insonlarda kasalliklarni oldini olish, salomatligini tobora yaxshilashga hissa qo'shilgan bo'lardi.

Momordika o'simligidan kimyoviy preparatlardan tashqari an'anaviy Sharq tabobatida chinakam dorivor o'simlik mahsuloti sifatida foylanib

kelishmoqda. Bu esa sog‘lom turmush tarzini kimyoviy moddalarsiz dorivor o‘simliklar mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish qobiliyatini ta‘minlab

qo‘shimcha o‘rganishni talab qilsa-da, tasdiqlangan dorivor xususiyatlari to‘g‘ri ishlatilganda ko‘zlangan maqsadga erishiladi.



1-rasm. Momordika o‘simligi

Momordika o‘simligining o‘ziga xos dorivor xususiyatlari

1. Urug‘lari yallig‘lanishga qarshi istma tushiruvchi, antiseptik shishni yengillashtirish xususiyatlariga ega.

2. Mevalarining pishish davrida o‘z rangini och sariqdan to‘q sariqqa-cha o‘zgartiradi. Uning barcha qismlari maxsus bezli tuklar bilan qoplangan. Shuning uchun o‘simlik bilan ishlash vaqtida odam terisining tiralishi oqibatida teri sohasida kuyishlar paydo bo‘lishi mumkin, shuning uchun qo‘lqop bilan ishlash tavsiya etilishi lozim. Pishgan mevaning ichki qismida to‘q qizil go‘shtdor eti mavjud, shu qismi anor o‘simliging perikarpasiga o‘xshab ko‘rinadi. Mevalar o‘zida juda ko‘p dorivorlik xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan. Bu qismi noyoblik jihatdan o‘simlikning barcha qismlaridan ustun, ular saraton hujayralarini o‘sishiga to‘sqinlik

qilib, kasallik faoliyatini susaytiradi, hatto ba‘zan butunlay davolash darajasiga ham erishish mumkin. Momordika ekstrakti melanoma, sarkoma va leykemiya kasalligiga uchragan bemorlarni davolash paytida ishlatilsa, ijobiy natijaga erishsa bo‘ladi. Bundan tashqari, momordika o‘simligidan gepatit, jigar saratoni yuqumli va surunkali kasalliklarda davolaniladi.

3. O‘simlik tarkibida oshqozonosti bezi hujayralari sonini ko‘paytirish va insulin gormoni ishlab chiqarish xususiyatini ta‘minlaydigan harontin moddasi borligi tufayli qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarni sog‘ligini saqlab shakar miqdorini kamaytirib turadi. Tanani toksinlardan kamaytirib tozalab immunitetni oshiradi. Yangi mevasida foliy kislotalari bo‘lib, suyakning quvvatga kirish jarayonida

qatnashadi. Eng kuchli antioksidant likopen ham bor.

4. Barglarida tarkibida P va uglevodlar bo'lib, oqsilning koni hisoblanadi. Barglaridagi ekstrakti oddiy stafilokokklarni, shu bilan birga, OIVni ham yo'qitishi mumkin.


5. Ildizidan tritepen saponini mavjudligi aniqlanib, revmatizmni davolaydi. Bundan tashqari, ildizidan bronxitda ekspektoran sifatida faol ishlatiladi.

6. Momordikani vazn yo'qotishda foydalanish mumkin. Chunki o'simlik tarkibida 80-85 foiz suv bor.

Momordika o'simlikni kimyoviy tarkibi

O'simlikni ozuqaviy qiymati 100 g mahsulotda 15-19 kkalga teng, bundan tashqari, o'simlikda yog' miqdori 0,1 g, uglevodlar 3 g, oqsil 0,8 g, suv 80 g ni tashkil etadi. Momordika mevasi tarkibida A, B, F, E, C va PP vitaminlari shuningdek, flavonoidlar, alkaloidlari, organik kislotalar, aminokislotalar bor.

Farmasevtika sanoatida o'simlik ekstrakti o'z ichiga olgan yengil tuzli eritma ishlab chiqariladi. Eritma ichga yutiladi, teri ostiga, mushak ichiga, tomir ichiga yuboriladi.



2-rasm. Momordika o'simligining quritilgan va damla holatida.

Xalq tabobatida momordika o'simlikning mevalari va urug'lari damlama tayyorlash uchun ishlatiladi.

Urug'ining qaynatmasi skleroz, diuretik, prostatit va hemoroid uchun ishlatiladi.

Mevasidan tayyorlangan damlamasi – yo'tal, revmatizm, burun oqishi kabi kasalliklarda yaxshi natija beradi. Mevalarini maydalab, shisha idishga solib 0,4 litr spirt quyiladi, so'ng usti yopilib, 2 hafta salqin joyga qo'yiladi.

Damlama tayyor bo'lgandan keyin och qoringa 30 daqiqa oldin 3 mahal-dan ichish tavsiya etiladi. Bu o'simlik xususiyati tibbiyot reyestridan o'tmagan.

Yaponiyada bu o'simlik mashhur bo'lib, odamning uzoq umr ko'rish sabablaridan biri hisoblanadi.

Momordika o'simligi foydali xususiyatlarga boy bo'lsa-da, iste'mol qilishda me'yorga rioya qilishi kerak.

Momordika o'simligidan foydalanish mumkin bo'lgan holatlar ham bor bo'lib, ushbu ekzotik preprat homilador ayollarga tavsiya etilmaydi.

An'anaviy tibbiyotda foydalanish. Momordika uzoq vaqt davomida Osiyo va Afrikada tibbiyot tizimlarida ishlatilgan. Turkiyada u turli kasalliklar, xususan, oshqozonida muammosi borlar uchun davo sifatida ishlatilgan. Hindistonning an'anaviy tibbiyotida o'simlikning turli qismlari [qandli diabet](#) (ayniqsa, polipeptid-p, [insulin](#) analogi, oshqozon, antibiotik, [qusish](#), [antigelmintik vosita](#) sifatida ishlatiladi. [Yo'tal](#), nafas yo'llari kasalliklari, teri kasalliklari, yaralar,

oshqozon yarasi, [podagra](#) va [revmatizm](#) kabi kasalliklarga davo sifatida ishlatilgan.

Salbiy ta'sirlar

Aniqlanga nojo'ya ta'sirlarga [diar-eya](#), qorin og'rig'i, [isitma](#), [gipoglikemiya](#) va ko'krak og'rig'i kiradi. Simptomlar, odatda, yengil, davolanishni talab qilmaydi va dam olish bilan yo'qoladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, momordika o'simligini ko'plab kasalliklarga davo bo'lishi ayon bo'lmoqda. O'simlik yana oziq-ovqat sanoatida hamda estetik zavq olish uchun ham ekib o'stirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atabayeva X. O'simlikshunoslik. – Toshkent, 2004.
2. Xolmatov H.X., Ahmedov O'.A. (1995) Farmakognoziya. – Toshkent.
3. Teshaboyev, N., Abduraximova, M., Eshpulatov, A., Mahkamova, D. (2021, July). Ecological culture is a demand of today.
4. Turdaliev A., Yuldashev G., Askarov K. and Abakumov E. (2021) Chemical and Biogeochemical Features of Desert Soils of the Central Fergana. Agriculture. Vol. 67 (Issue 1), pp. 16–28. <https://doi.org/10.2478/agri-2021-0002/>
5. Askarov K., Musayev I., Turdaliev A., Eshpulatov Sh. (2020) Geochemical barriers in irrigated soils and the impact of them on plants." European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7, pp. 3082–3089.